

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA KO'RGAZMALI O'YIN MASHG'ULOTLARIDAN NAMUNALAR

Ergashova Saida Sirojiddinovna

Andijon viloyati Andijon tumani

13-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ta'lim jarayonida didaktik o'yinlar mazmuni va ahamiyatini chuqur va aniqroq tasavvur qilish maqsadida bu maqolada ta'lim, o'yin, didaktik topshiriq, o'yin topshiriqlari singari tushunchalarning ta'rifiga va ularning ma'nosini ochib berilgan

Kalit so'zi: O'yin, ob'yektiv voqelik, Didaktik o'yin, Teatr, Doiraviy misollar.

Ta'im — o'quvchilarga ko'nikma va malakalar berishning, bu bilim, ko'nikma va malakalarni o'quvchilar uqib olishi, egallab olishi va ularni mustahkamlab olishining rejali jarayonidir. O'yin — bolalarning ongi, qalbiga singib ketgan faoliyatdir, ularning bu faoliyati, o'yin turlariga qarab, ob'yektiv voqelikni, hayotni muayyan darajada o'zida aks ettiradi. O'yin sinfda o'tilgan o'quv faoliyatining ma'lum darajada davomi va mustahkamlanishidir. Tajribada shu narsa isbotlanganki, o'yin kichik maktab yoshidagi o'quvchi bolalarning zarur hayotiy ehtiyojidir. Didaktik o'yin — ta'lim beruvchi usul bo'lib, bu usul muayyan ta'limiy maqsadlarga erishuvga, ya'ni o'tilgan o'quv materialini aniqlashga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Har bir didaktik o'yinni o'tkazishda muayyan bir vazifa maqsad qilib olinadi. Masalan, «Teatr» o'yiniga qo'yiladigan didaktik topshiriq bolalarning oldingi darslarda tanishgan 5 soni haqidagi tushunchalarini mustahkamlashdan iborat. «Doiraviy misollar» o'yinida esa ikkinchi o'nlik ichida hisoblash malakalarini mustahkamlashdan iborat bo'lgan didaktik topshiriq qo'yiladi. O'yin topshirig'i — o'qituvchining bolalarga o'yinning qanday o'ynalishini, kim g'olibligini aniqlashdan iborat. «Ikkinchi qo'shish va ayirish» Didaktik o'yin:

«Jimjitlik» Didaktik topshiriq: o'ngacha og'zaki sanash. O'yin topshirig'i: o'qituvchi ko'rsatgan narsalarning «hayolda» sanash, doskaning oldiga borib, son natijasini topib, uni o'chirib tashlash. Bu o'yin turli usullarda o'tkaziladi. O'qituvchi doskaga oldinroq doira chizib, uning atrofiga 1 dan 10 gacha bo'lgan raqamlarni yozib, doiraning o'rtasiga 2 raqamini amal belgisi (qo'shish yoki ayirish) bilan yozib qo'ygan bo'ladi. O'yin uyga berilgan topshiriq tekshirilgandan keyin o'tkaziladi. O'qituvchi bolalarga o'yin qoidalarini tushuntiradi: — O'yin mutlaqo jimjitlik vaziyatida o'tkaziladi, — deydi o'qituvchi.- Avval men doira ichidagi raqamni, keyin qo'shish yoki ayirish ishorasini va doira atrofidagi raqamlardan birini ko'rsataman. Sizlar qaysi raqamni ko'rsatishimni yaxshilab kuzatinglar, u raqam bilan nima qilinishi kerakligini o'ylab ko'ringlar. Mana deb tayyorlab kelgan ko'rgazmali quroli orqali bajarib ko'rsatadi. Kimda-kim topshiriqni bajargan bo'lsa, ovoz chiqarmay, qo'l ko'tarsin. Men chaqirishim bilan u kataklar ichiga javobni yozadi deb o'rgatadi. Shundan keyin o'yin boshlanadi. O'qituvchi ikkiga to'rt qo'shilishi kerakligini ko'rsatadi. U 5 sekund davomida kerakli son va belgilarni ko'rsatkich bilan ko'rsatib turadi. Uning chaqirig'i bilan o'qituvchilar topshiriqni ovoz chiqarmasdan bajarishadi. So'ngra o'qituvchi sur'atni tezlashtiradi (2 sekunddan). Sinfda jimjitlik. Bolalar butun diqqatlarini bir yerga to'plab ish qiladilar. 10 nafar bolaning bergan javobi aniqlanadi va ulardan kim g'olib chiqqanligi e'lon qilinadi. O'yin 5-6 rminut davom etadi. Xulosa: o'yin juda sodda bo'lib, undan keng miqyosda foydalanish mumkin. Bu o'yin bolada iroda, tirishqoqlikni tarbiyalashga va ularda sanoqqa bo'lgan qiziqishni oshirishga ko'p jihatdan yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dilova N.G. (2021). Ajdodlarimiz merosi vositasida bo'lajak o'qituvchilarga ta'lim-tarbiya berishning ahamiyati. Science and Education.